

---

## HECH BIR MUROJAAT E'TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi A.Djurabayevning navbatdagi qabuli o'tkazildi. Haftaning har seshanba kuni tuman hokimi tomonidan o'tkazib kelinayotgan fuqarolar qabulida har bir murojaatga alohida e'tibor qaratilib, muammolar o'z yechimini topmoqda.

Navbatdagi qabulda 40 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 15 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, 5 nafar fuqaroga bir martalik oziq-ovqat mahsulotlari berildi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 ta murojaat nazoratga olindi 10 nafar fuqaro murojaati yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi.

2022-06-22 09:29:36